

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

SUN’IY INTELLEKT VA UNING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Eshmamatova Zuxra

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti talabasi

To’rayeva Gulnoza

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti O’qituvchisi

ANNATATSIYA: Mazkur maqolada sun’iy intellektning mazmuni uning jamiyat hayotidagi o’rni hamda ta’lim tizimiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek sun’iy intellekt texnologiyalarining inson faoliyatidagi qulayliklari, imkoniyatlari va ayrim muamoli jihatlar haqida fikr yuritilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati ham tahlil qilingan.

ABSTRACT: This article discusses the content of artificial intelligence. Its role in society and its impact on the education system. There have also been reflections on the minutiae capabilities and certain aspects of artificial intelligence technologies in human activities. The article also analyzed the importance of using artificial intelligence in the modern educational process.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается содержание искусственного интеллекта, его роль в обществе и влияние на систему образования. Также обсуждаются удобства, возможности и некоторые проблемные аспекты применения технологий искусственного интеллекта в человеческой деятельности. В статье анализируется важность использования искусственного интеллекта в современном образовательном процессе.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, texnologiya, raqamli ta’lim innovatsiya, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, zamonaviy ta’lim kompyuter tizimi.

Keywords: Artificial intelligence, technology, digital education innovation, information technology, automation, modern educational computer system.

Ключевые слова: искусственный интеллект, технологии, инновации в цифровом образовании, информационные технологии, автоматизация, современная компьютерная система в образовании.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

Hozirgi davrda axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida sun’iy intellekt tushunchasi keng ommalashib bormoqda. Sun’iy intellekt-bu kompyuter va texnologik tizimlarning inson taffakuriga xos bo’lgan ayrim vazifalarni bajarish qobiliyatidir. U inson kabi o’rganish tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda muammolarni hal etish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda sun’iy intellekt tibbiyot, iqtisodiyot, ta’lim sanoat va boshqa ko’plab sohalarda qo’llanilmoqda. Ayniqsa ta’lim tizimida uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Elektron platformalar aqilli dasturlar va virtual yordamchilar o’quvchilarning bilim olish jarayonini yengilshirmoqda.

Sun’iy intellektning asosiy vazifasi inson faoliyatini yengillashtirish va vaqtni tejashdan iborat. Masalan, aqilli dasturlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qila oladi. Bu esa inson mehnatini ancha yengillashtiradi.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt asosida yaratilgan, dasturlar o’quvchilarning bilim darajasini aniqlash individual topshiriqlar berish va mustaqil ta’lim olishiga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn ta’lim platformalari orqali masofadan turib sifatli bilim olish imkoniyati kengaydi. Biroq sun’iy intellektning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Texnologiyalarga haddan tashqari bog’lanish insoning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek ayrim kasblarning avtomatlashtirilishi ish o’rinlarini qisqarishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Xulosa qilib aytganda sun’iy intellekt zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ommilaridan biridir. U inson hayotini yengillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va turli sohalarda samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi va shu bilan birga undan oqilona va maqsadli foydalanish muhim hisoblanadi. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo’shadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Axrorjon, Y., Alijon, M., & Iqlima, A. Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri. Ta'lim fidoyilari, 2022.
2. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. Ta'limdagi axborot texnologiyalari. Scientific progress, 2021.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

3. Ashurov J.Dj., Zamonaviy ta'lim muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati // 2021.
4. Q.A. Bekmurotov. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: "Aloqachi", 2019.
6. Mano, C. (2014). Sun'iy neyron tarmoqlariga misollar. 2014-yil iyun oyida networks.html dan olingan. [http://www.ehow.com/print/about\\_5585309\\_definition-neural-](http://www.ehow.com/print/about_5585309_definition-neural-)
7. Mujib, R. (2012). Sun'iy neyron tarmoq va mashinani o'rganishga kirish. Palakkad: Hukumat muhandislik kolleji, Sreekrishnapuram.
8. Sundal, M. K. va boshqalar (2014). Kirish. 2014-yil 20-noyabrda <http://nptel.ac.in/courses/10210602> dan olindi.
9. Bekmatov A.K., Kutdusova E.R., Mukimov Sh.I., & Davlatova N.N. (2023). PROGRESSIVNYE TENDENTSIY PRIMENIYA ISKUSSSTVENNOGO INTELLEKTA V OBLASTI INFORMATSIONNOY BEZOPASNOSTI. *Ekonomi va sotsium*, (6-1 (109)), 264-1270.
10. Bekmatov, A. K., Qutdusova, E. R., & Muqimov, Sh. I. (2023). PREIMUshchESTVA I EFEKTIVNOST ISPOLZOVANIYA ISKUSSSTVENNOGO SOTSIALNO-INTELLEKTA B EKONOMICHESKOY SFERE. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(20), 280-286.